Matrasul Yoqubov Mavlonberdiyevich, Qodirova Gulnoza Shavkatjon qizi	
MAMLAKATNING HUDUDIY IQTISODIY SIYOSATIDA BARQAROR HUDUDIY RIVOJLANISHNING MAZMUNI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1637
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	



YOSHLAR TURIZMI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR, RAQAMLI AVLOD EHTIYOJLARI VA INNOVATSION TAKLIFLAR MODELİ	1644
Hamzayeva Difuza Samarovna	
HUDUDLAR TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINING RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH INDEKSLLARI ASOSIDA TOIFALARGA AJRATISH	1650
Matkarimov Komoliddin Jurabayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQUARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1655
Dilnozaxon Muxitdinova	
MAMLUKAT BRENDA-MARKETINGI SAYOHATNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA (BAA: DUBAY SHAHAR MISOLIDA)	1661
Ibodova Dilsora Ibodovna	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ВОЙНЫ И ИХ СПЕЦИФИКА В СПОРТЕ	1666
Набиуллин Р., Юсупов И., Ахмедова Ш.	
VIRTUAL LABORATORIYALAR ORQALI IQTISODIYOT YO'NALISHIDA PROFESSIONAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH.....	1674
Buranova Jazira Ergash qizi	
DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI	1680
Rizozulova Elnora Otabek qizi	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SHARTLAR ASOSIDA KREDIT OLISH IMKONIYATLARI	1684
Azimov Obidjon To'ymuratovich	
TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUV DARAJASI VA MOLIVAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1689
S.S. Togayev, S.T. Xolboyev	
MAHSULOT TANNARXI XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR.....	1695
Inamov Abdusalom Muhamadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT LOGISTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1699
Majidov Nodirbek Usmonjon o'g'li	
MOLIVAVIY HISOBOTLARNI SOXTALASHTIRISH VA MOLIVAVIY FIRIBGARLIKLARNI ANIQLASHDAGI MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	1704
Xusanov Shuhrat Burhanovich	
YASHIL INVESTITSIYALAR VA IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGI.....	1708
Dexkanova Shodiyona Kaxramon qizi	
KORXONALARNING STRATEGIK BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISHDA SWOT TAHLILINING AHAMIYATI (UZGIDROENERGO AJ MISOLIDA).....	1712
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
HR BRANDING VA MARKETING INTEGRATSIYASI: KORXONA IMIJINI MUSTAHKAMLASH STRATEGIYALARI.....	1718
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YASHIL IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON VA JAHON TAJRIBASI	1724
Saloxidinov Jahongir Alisher o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING MIQDOR VA SIFAT MEZONLARINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	1727
Mirzayeva Intizor Ergashevna	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1733
Sobirov Azizbek Avazbekovich, Erkinova Adolat Karim qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHDA DUCH KELADIGAN MUAMMOLAR TAHLILI.....	1738
G'afurov Zohidjon	



ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ЭФФЕКТА ГЛУШЕНИЯ СТЕКЛОМАЗАИЧНЫХ ПЛИТОК ИЗ ТЕХНОГЕННЫХ ОТХОДОВ	1741
Казаков Умрбек Аллаберганович	
INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	1745
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA QASHQADARYO VILOYATI KICHIK SANOAT ZONALARINING INVESTITSION SALOHİYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1749
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich	
«HUDUDGAZTA'MINOT» AJ KORXONALARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH XUSUSIYATLARI.....	1754
Xusanov Durbek Nishanovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1760
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
QASHQADARYO VILOYATIDA INVESTITSIYA VA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILI	1766
To'rayev Jasurali To'rayevich	
KOOPERATSIYA MUNOSABATLARIGA KIRGAN VA KIRMAGAN FERMER XO'JALIKLARINING EMPIRIK DESKRIPTIV STATISTIKA TAHLILI.....	1772
Ismoilov Azamat	
DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES.....	1777
Khalimov Shakhboz Khalimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH STRATEGIYALARI.....	1782
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
AQSH VA FRANSIYA MISOLIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK MEZONLARINING TAHLILI.....	1786
Aripov Oybek Abdullaevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING EKSTENSIV, INTENSIV VA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY O'SISHINING EKONOMETRIK TAHLILI.....	1794
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING EKSTENSIV, INTENSIV VA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY O'SISHINING EKONOMETRIK TAHLILI

Bustonov Mansurjon Mardonakulovich

Namangan Davlat texnologiya universiteti,
"Buxgalteriya hisobi" kafedrası i.f.d.(DSc), professor,
E-mail: bustonov1975@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sish jarayonlarining ekstensiv, intensiv va raqamli iqtisodiyot sharoitida shakllanishi hamda ularning o'zaro ta'sir mexanizmlari iqtisodiy-statistik va ekonometrik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida mamlakat iqtisodiyotining tarixiy ekstensiv rivojlanish modeli imkoniyatlari va cheklovlari bilan bir qatorda, intensiv rivojlanishning mehnat unumdorligi, kapital samaradorligi hamda texnologik modernizatsiya orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirishdagi ustunliklari aniqlanadi. So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi iqtisodiy o'sishning yangi drayverlari sifatida raqamli transformatsiya, big-data, avtomatlashtirish, sun'iy intellekt va biznes jarayonlarini optimallashtirish rolini kuchaytirayotgani ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqotda 2000–2024-yillar makroiqtisodiy ma'lumotlari asosida iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar OLS, VAR, ECM, Granger sababiylik testi va ARDL modellari orqali baholandi. Olingan natijalar O'zbekiston iqtisodiyotida intensiv va raqamli omillarning kuchayishi barqaror iqtisodiy o'sish trajektoriyasini shakllantirayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, ekstensiv rivojlanish, intensiv rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, mehnat unumdorligi, texnologik modernizatsiya, sun'iy intellekt, iqtisodiy siyosat, ekonometrik modellar, Greynjer sababiy aloqasi.

Abstract. This study analyzes the processes of economic growth in the Republic of Uzbekistan under conditions of extensive, intensive, and digital economic development, as well as the mechanisms of their interaction, using economic-statistical and econometric approaches. The research identifies both the opportunities and limitations of the historical extensive growth model and highlights the advantages of intensive development driven by labor productivity, capital efficiency, and technological modernization. The rapid expansion of the digital economy in recent years has enhanced the role of key growth drivers, including digital transformation, big data, automation, artificial intelligence, and business process optimization. Based on macroeconomic data covering the period 2000–2024, the impact of economic growth factors was assessed using OLS, VAR, ECM, Granger causality tests, and ARDL models. The results indicate that the strengthening of intensive and digital factors is contributing to a stable and sustainable economic growth trajectory in Uzbekistan.

Key words: economic growth, extensive development, intensive development, digital economy, labor productivity, technological modernization, artificial intelligence, economic policy, econometric models, Granger causality.

Аннотация. В данной статье анализируются процессы экономического роста Республики Узбекистан в условиях экстенсивного, интенсивного и цифрового развития, а также механизмы их взаимного влияния на основе экономико-статистических и эконометрических подходов. В рамках исследования выявляются возможности и ограничения исторической экстенсивной модели роста, наряду с преимуществами интенсивного развития, основанного на росте производительности труда, эффективности капитала и технологической модернизации. Установлено, что активное формирование цифровой экономики в последние годы усиливает роль таких факторов экономического роста, как цифровая трансформация, big data, автоматизация, искусственный интеллект и оптимизация бизнес-процессов. На основе макроэкономических данных за 2000–2024-годы влияние ключевых факторов экономического роста оценено с использованием моделей OLS, VAR, ECM, теста причинности Грейнджера и ARDL. Полученные результаты свидетельствуют о формировании устойчивой траектории экономического роста за счёт усиления интенсивных и цифровых факторов.

Ключевые слова: экономический рост, экстенсивное развитие, интенсивное развитие, цифровая экономика, производительность труда, технологическая модернизация, искусственный интеллект, экономическая политика, эконометрические модели, причинность Грейнджера.



KIRISH

Iqtisodiy o'sishning sifati deganda jamiyatda amalga oshayotgan iqtisodiy rivojlanish jarayonining barqarorligi, samaradorligi va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy natijalari tushuniladi. Iqtisodiy o'sish, avvalo, jamiyatda ishlab chiqarish hajmining yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mahsulotlar va xizmatlar hajmining muttasil ortib borishi orqali baholanadi. Mazkur jarayon real yalpi milliy mahsulot yoki real milliy daromad hajmining oshishi bilan ifodalanadi va mamlakat iqtisodiy salohiyatining kengayib borayotganini ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv usuli ishlab chiqarish omillarining miqdoriy kengayishi hisobiga rivojlanishni ta'minlab, ma'lum bosqichlargacha sodda va kam xarajatli o'sish imkonini beradi. Shu bilan birga, texnik-iqtisodiy taraqqiyot bilan uyg'unlashmagan holda amalga oshirilgan miqdoriy kengayish ishlab chiqarish samaradorligini cheklashi mumkin, biroq ushbu holat intensiv omillar va innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi orqali bartaraf etiladi. Natijada, ishlab chiqarish hajmining oshishi dastlab yuqoriroq xarajatlarga tayanishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda texnologik yangilanish va resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy o'sishning sifat jihatlari mustahkamlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Solou (1956), Swan (1956) hamda Harrod–Domar modellari iqtisodiy o'sishni asosan resurslar va kapital omillarining ta'siri bilan izohlaydi, Romer va Lucas modellari esa intensiv iqtisodiy o'sishning poydevori sifatida inson kapitali va texnologik innovatsiyalarning hal qiluvchi ahamiyatini ta'kidlaydi. OECD va World Bank hisobotlarida resurslarga tayanib amalga oshiriladigan iqtisodiy o'sishning muayyan chegaralari mavjudligi ilmiy asosda ko'rsatib berilgan. Brynjolfsson va McAfee (2014), shuningdek UNCTADning 2021-yildagi tadqiqotlari raqamli texnologiyalar iqtisodiy o'sishning kuchli drayveriga aylanayotganini tasdiqlaydi. Digital Transformation indeksleri, jumladan DESI, E-Gov va ICT Development Index ko'rsatkichlari bilan iqtisodiy o'sish o'rtasida yuqori darajadagi korrelyatsiya mavjudligi aniqlangan. YalMning o'sish sur'atlari 2017-yilgacha asosan ekstensiv modelga tayanib shakllangan bo'lib, bunda aholi sonining ortishi, xomashyo resurslaridan keng foydalanish hamda ko'p mehnat talab qiluvchi tarmoqlarning ustunligi muhim rol o'ynagan.

2017–2024-yillar davomida mamlakat iqtisodiyoti intensiv va raqamli rivojlanish modeliga bosqichma-bosqich o'tishni boshladi, bu jarayon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5349¹ va PF-6079-son farmonlari² asosida huquqiy va institutsional jihatdan mustahkamlandi. Mahalliy olimlar, jumladan Mullaboev, Bo'stonov, Xasanov, Abduxalimov va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mehnat unumdorligini oshirish, investitsiya siyosatini takomillashtirish hamda raqamli iqtisodiyotning milliy iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi o'rni har tomonlama tahlil qilingan. Aholi turmush darajasini yuksaltirish, erkin va farovon hayotni barpo etish jarayonida milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash hamda jamiyat a'zolarining real daromadlarini izchil oshirib borish ustuvor vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirish nafaqat tashkiliy-texnik jihatdan, balki uslubiy va nazariy nuqtayi nazardan ham murakkab bo'lib, u xalqaro andozalarga asoslangan yangi konsepsiyalarni shakllantirish, amalda qo'llanib kelinayotgan yondashuvlarni tanqidiy tahlil qilish, ularni modernizatsiya qilish hamda ilmiy asoslangan prognozlar ishlab chiqishni talab etadi. Iqtisodiy hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda statistik modellarni qurish jarayonida korrelyatsion va regression tahlil metodlaridan keng foydalanilmoqda. Mazkur metodlar bevosita ekonometrik modellashtirish asosida amalga oshirilib, tadqiqot maqsadini aniqlash, iqtisodiy o'zgaruvchilarni belgilash, dastlabki axborot bazasini shakllantirish, model turini tanlash, o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni matematik shaklda ifodalash, zarur statistik ma'lumotlarni to'plash, model parametrlarini baholash hamda tuzilgan modelning real iqtisodiy jarayonga mosligini tekshirish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy o'sishini ekstensiv, intensiv hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida kompleks baholashga qaratilgan bo'lib, unda rasmiy statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy-statistik va ekonometrik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot doirasida 2000–2024-yillar oralig'idagi yalpi ichki mahsulot, asosiy kapitalga investitsiyalar, mehnat va kapital unumdorligi, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar xarajatlari hamda raqamli infratuzilma rivojlanishini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tanlab olindi. Axborot bazasi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Jahon banki hamda tegishli vazirlik va idoralar hisobotlariga tayangan holda shakllantirildi.

Tahlil jarayonida korrelyatsion hamda ko'p omilli regressiya tahlili usullari, jumladan oddiy eng kichik kvadratlar (OLS) metodi qo'llanildi va ekonometrik modellar EViews dasturi yordamida baholandi. Tuzilgan

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.02.2018 yildagi PF-5349-son <https://lex.uz/ru/docs/-3564970>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son <https://lex.uz/docs/-5030957>



modellarning ishonchiligi Fisher mezon, Durbin–Watson statistikasi, MAPE hamda Theil Inequality Coefficient (TIC) ko'rsatkichlari asosida tekshirildi. Olingan empirik natijalar iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi asosiy omillarning ta'sir darajasini aniqlash, shuningdek ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tizimli baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shu bilan birga, mazkur tadqiqot doirasida dastlab O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining 2000–2020-yillardagi rasmiy statistik ma'lumotlari asosida ekstensiv iqtisodiy o'sish jarayonining ekonometrik tahlili amalga oshiriladi. Ushbu tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsulot hajmi (YIM) asosiy natijaviy ko'rsatkich sifatida tanlanib, uning asosiy kapitalga investitsiyalar (AKI), iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy fondlar qiymati (AFQ), iqtisodiyotda band bo'lganlar soni (IBS), mamlakat iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni (KS) hamda mavjud tabiiy resurslardan olinayotgan daromadlar (TRD) omillarining ta'siri ostida qanday o'zgarishi ekonometrik jihatdan tahlil qilinadi. Mazkur jarayonda ta'sir etuvchi omillarning tanlanishi ilmiy asoslanganligini ta'minlash maqsadida ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik darajasi korrelyatsiya koeffitsientlari yordamida aniqlanadi va natijalar 1-jadvalda umumlashtiriladi.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti³

	YIM	AKI	AFQ	IBS	KS	TRD
YIM	1					
AKI	0.9742931	1				
AFQ	0.9743633	0.692868	1			
KS	0.81907498	0.697102	0.70072	1		
IBS	0.97493993	0.747873	0.64392	0.755496	1	
TRD	-0.20283965	-0.01753	-0.02283	-0.50675	-0.17204	1

1-jadvalda aniqlangan qiymatlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot hajmi - YIM omilga nisbatan asosiy kapitalga investitsiyalar – AKI ($r_{YIM,AKI}=0,97429$), iqtisodiyot tarmoqlarida asosiy fondlar qiymati - AFQ ($r_{YIM,AFQ}=0,974436$), iqtisodiyotda bandlar soni - IBS ($r_{YIM,IBS}=0,81908$), faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni – KS ($r_{YIM,KS}=0,97429$) kuchli zichlikda va mavjud tabiiy resurslardan olingan daromad – TRD ($r_{YIM,AKI}=-0,20284$) kuchsiz teskari bog'langanligini ko'rish mumkin.

Barcha omillar bilan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'rtasida teskari kuchsiz bog'langan bo'lib, omillar o'rtasida $r_{x1,x2}<0,8$ shartga ko'ra multikoleniarlik mavjud emasligidan kuzatilayotgan bog'liqlik o'rtasida regressiya tenglamasini aniqlashni EViews dasturi orqali davom ettirish mumkin. Buning uchun tanlab olingan omillar o'lchov birliklari turlicha bo'lganligi bois, omil ko'rsatkichlarini logarifmlab chiziqli tenglamani hosil qilish bilan birga uni sifat mezonlari asosida tekshiriladi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot hajmining ekstensiv o'zgarish modelining parametri va sifat mezonlari⁴

Dependent Variable: LNYIM				
Method: Least Squares				
Date: 10/08/21 Time: 17:35				
Sample: 2000 2020				
Included observations: 21				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
LNAKI	-0.38635	0.267137	-1.44627	0.0049
LNAFQ	0.474321	0.142377	3.331438	0.0046
LNIBS	8.45557	1.249186	6.768864	0.0000
LNKS	1.046709	0.399382	2.620823	0.0193
LNTRD	0.067062	0.057822	1.159788	0.0043

3 Muallif hisob-kitoblari.

4 Muallif hisob-kitoblari.



C	-75.44575	12.04991	-6.261104	0.0000
			t=2.13145	
R-squared	0.998570	Mean dependent var		10.99539
Adjusted R-squared	0.998094	S.D. dependent var		1.614075
S.E. of regression	0.070469	Akaike info criterion		-2.232339
Sum squared resid	0.074488	Schwarz criterion		-1.933904
Log likelihood	29.43956	Hannan-Quinn criter.		-2.167571
F-statistic	2095.525	Durbin-Watson stat		1.962872
Prob(F-statistic)	0.000000	F=4.618759		


Jadvalda keltirilgan koeffitsientlardan foydalangan holda dastlab chiziqli logoritmik tenglamani aniqlanadi va u quyidagicha ifodalanadi:

$$\ln YIM = -0.38635173 \ln AKI + 0.474 \ln AFQ + 8.456 \ln IBS + 1.05 \ln KS + 0.067 \ln TRD - 75.45 \quad (1)$$

Matematika qoidalariga va hisob-kitob jarayonlarini osonlashtirish hamda natijalar aniqligiga erishish uchun yuqorida hosil qilingan 1-regressiya tenglamasini potensirlab olinadi va unga ko'ra quyidagi tenglama hosil qilinadi:

$$YIM = \frac{AFQ^{0.474} \cdot IBS^{8.456} \cdot KS^{1.05} \cdot TRD^{0.067}}{AKI^{0.38635173} \cdot e^{75.45}} \quad (2)$$

Aniqlangan 2-regressiya tenglamasi parametrlarini t-Statistic mezonlari bo'yicha ahamiyatligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, $\alpha=0,05$ va $df=15$ bo'lgan holda $t_{Jad}=2.13145$ ga tengligidan asosiy kapitalga investitsiyalar – AKI ($t_{AKI}=-1.44627$) va tabiiy resurslardan olingan daromad – TRD ($t_{TRD}=1.159788$) omillari $t_{his} > t_{Jad}$ shartga ko'ra, ahamiyatsiz bo'lib, uni tekshirish uchun retrospektiv sifat mezonlari MAPE (Mean Absolute Percentage Error – o'rtacha mutloq foiz xatosi) va TIC (Tayl inequality coefficient – Teyl prognoz aniqligining muqobil o'lchovi)dan foydalanish mumkin (1-rasm).



Forecast: LNYIMF	
Actual: LNYIM	
Forecast sample: 2000 2020	
Included observations: 21	
Root Mean Squared Error	0.059557
Mean Absolute Error	0.048429
Mean Abs. Percent Error	0.440869
Theil Inequality Coefficient	0.002681
Bias Proportion	0.000000
Variance Proportion	0.000358
Covariance Proportion	0.999642
Theil U2 Coefficient	0.206261
Symmetric MAPE	0.440779

1-rasm. Ekstensiv o'sish modeli parametrlarining retrospektiv sifat mezonlari⁵

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga asosan ta'kidlash mumkinki, MAPE=0,4409 bo'lib, bu o'z navbatida MAPE=0,4409<10% prognoz aniqligi yuqori va TIC=0,0027<1 koeffitsient qanchalik nolga intilishidan prognoz aniqligi shunchalik yuqori bo'ladi. Bu esa 2-regressiya tenglamasi parametrlarining barchasini ahamiyatligini isbotlaydi.

Endi 2-regressiya tenglamasini haqiqatdan ahamiyatligini $\alpha=0,05$ va $k1=15$; $k2=5$ bo'lganda $F_{Jad}=4,618759$ ga tengligini e'tiborga olgan holda hisoblangan Fisher qiymati $F_{his}=2095,5$ tengligidan $F_{Jad} < F_{his}$ shartga binoan 2-regressiya tenglamasining ahamiyatligi hamda DW=1,96 teng bo'lganligi bois, avtokorrelyatsiya mavjud emasligidan tenglamaning ishonchli va adekvatligi kelib chiqadi.

Aniqlangan 2-regressiya tenglamasiga iqtisodiy izoh beradigan bo'lsak, agar iqtisodiyot tarmoqlarida asosiy fondlar qiymati va mavjud tabiiy resurslardan olingan daromad hajmini 1 mlrd. so'mga oshirishni ko'zda

⁵ Muallif hisob-kitoblari asosida tayyorlangan.



tutiladigan bo'lsak, u holda yalpi ichki mahsulot hajmi qo'shimcha, mos ravishda 0,3 mlrd. so'm va 1481,4 mlrd. so'm, agar hozirgi kunda mamlakatda iqtisodiyotda bandlar sonini va faoliyat ko'rsatayotgan korxona hamda tashkilotlar sonini mingtaga oshirilsa, mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmi qo'shimcha mos ravishda 45,8 mlrd. so'm va 1560,2 mlrd. so'mga oshirish mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi kunda mamlakatda investitsiyaga to'yingan bo'lib asosiy kapitalga investitsiyalar hajmini 1 mlrd. so'mga qisqartirish mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmini qo'shimcha 1,3 mlrd. so'mga oshishiga olib kelishi aniqlandi.

Intensiv o'sish modeli bir qator yangi tavsiflarga, xususiyatlarga va ustunliklarga ega:

iqtisodiyot o'sishining bir muncha qiyin usuli bo'lib, unda ilmiy-texnik rivojlanish hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Shunga muvofiq, u ishlab chiqarish kuchlari, texnika, texnologiyalarning yuqori darajada o'sishini va xodimlarning yuqori ma'lumotini va mutaxassisligini nazarda tutadi;

iqtisodiyotning aynan mana shu o'sish usuli resurslarning chegaralanganlik muammosini hal etish imkonini beradi. Bu esa, aynan mana shu usulda iqtisodiyot o'sishining asosiy manbalaridan biri bo'lib resurslarni tejaydi, hisoblanadi, bu jamiyat uchun resurslar o'sishiga qaraganda bir muncha arzonaga tushadi.

O'sish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar iqtisodiy o'sish uchun eng muhim omillar sifatida jismoniy va inson kapitalining to'planishini, shuningdek ishlab chiqarish texnologiyasi va to'g'ri iqtisodiy siyosatni aniqladi. Shundan kelib chiqqan holda intensiv o'sishning yuqorida keltirilgan xususiyatlaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining 2000-2020 yillardagi statistik ma'lumotlaridan foydalangan holda intensiv o'sishning ekonometrik tahlilini amalga oshiramiz.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot hajmi – YIM ga mehnat unumdorligi – MU, kapital unumdorligi – KU, ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlar – ITX va mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy o'sish sur'atlarining o'sishidagi tafovutlar ham malakali va ham malakasiz ishchilarni sezilarli darajada qayta taqsimlanishiga olib kelishini nazarda tutgan holda, oliy o'quv yurtini tamomlaganlar soni – OMS omillarining ta'siri natijasida o'zgarishini ekonometrik tahlil qilamiz. Chunki ular kambag'al mamlakatlardan yoki ish haqi past bo'lgan hududlardan badavlat mamlakatlarga yoki ish haqi yuqori bo'lgan hududlarga ko'chib o'tishga moyil bo'ldilar. Tahlilni amalga oshirishimiz uchun birinchi navbatda albatta, ta'sir etuvchi omillarni to'g'ri tanlanganligiga ishonch hosil qilish uchun ular o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsientlari aniqlanadi (3-jadval).

3-jadval. O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot hajmining intensiv o'zgarish omillari o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti⁶

	YIM	MU	KU	ITX	OMS
YIM	1				
MU	0.999583	1			
KU	0.869922	0.684779	1		
ITX	0.936813	0.733626	0.577564	1	
OMS	-0.508543	-0.403024	-0.55199	-0.66357	1

Jadval qiymatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, natijaviy YIM -omilga nisbatan mehnat unumdorligi – $MU(r_{YIM,MU}=0,999583)$, kapital unumdorligi – $KU(r_{YIM,KU}=0,869922)$, ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga xarajat – $ITX(r_{YIM,ITX}=0,936813)$ omillari kuchli zichlikda to'g'ri bog'langan va oliy o'quv yurtini tamomlaganlar soni – $OMS(r_{YIM,OMS}=-0,508543)$ omili natijaviy omilga nisbatan o'rtacha zichlikda teskari bog'langanligi aniqlandi. Tanlangan omillar o'rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsientiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, $r_{x_1,x_2}<0,8$ shartga ko'ra multikoleniarlik mavjud emas ammo, oliy o'quv yurtini tamomlaganlar soni barcha omillar bilan teskari bog'langanligini ko'rish mumkin.

Ushbu natijalardan kelib chiqqan holda kuzatilayotgan bog'liqlikka nisbatan O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot hajmining ko'p omilli regressiya tenglamasini aniqlashni EViews dasturi orqali davom ettirish mumkin. Bundan oldin esa albatta, tanlangan omillarning barchasini ye asosga ko'ra, logorifmlab olish lozim.

Ushbu jarayonni olib borishdan maqsad O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatan tanlangan omillarning o'lchov birliklari turlichaligi omillarni logorifmlashni taqazo etadi. Omillarni logorifmlagandan so'ng EViews dasturi orqali O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot hajmining ko'p omilli regressiya tenglamasini tuzish uchun koeffitsientlari aniqlanadi va uni sifat mezonlari asosida tekshiriladi (4-jadval).


6 Muallif hisob-kitoblari.



4-jadval. O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot hajmining intensiv o'zgarish modelining parametri va sifat mezonlari⁷

Dependent Variable: LNYIM				
Method: Least Squares				
Date: 10/15/21 Time: 07:18				
Sample: 2000 2020				
Included observations: 21				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
LNMU	1.403124	0.222233	6.313752	0.0000
LNKU	0.043014	0.016840	2.554276	0.0102
LNITX	-0.034120	0.022473	-1.518266	0.0501
LNOMS	-0.061496	0.039718	-1.548316	0.0310
C	1.331662	0.219177	6.075739	0.0000
			2.119905	
R-squared	0.999927	Mean dependent var		10.99539
Adjusted R-squared	0.999908	S.D. dependent var		1.614075
S.E. of regression	0.015455	Akaike info criterion		-5.297468
Sum squared resid	0.003822	Schwarz criterion		-5.048772
Log likelihood	60.62341	Hannan-Quinn criter.		-5.243495
F-statistic	54529.11	Durbin-Watson stat		1.987119
Prob(F-statistic)	0.000000	5.844117		

Aniqlangan jadval qiymatlariga ko'ra dastlab parametrlarni t-Statistic mezonlari bo'yicha ahamiyatligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, $\alpha=0,05$ va $df=16$ bo'lgan holda $t_{jad}=2,119905$ ga tengligidan ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlar – ITX($t_{ITX}=-1.518266$) va oliy o'quv yurtini tamomlaganlar soni – OMS($t_{ITX}=-1.548316$) omillari $t_{his} > t_{jad}$ shartga ko'ra, ahamiyatsiz bo'lib, ushbu parametrlarning haqiqatda ahamiyatlik yoki ahamiyatsiz ekanligiga ishonch hosil qilish uchun MAPE va TIC bilan tekshirish talab etiladi (2-rasm).



Forecast: LNYIMF	
Actual: LNYIM	
Forecast sample: 2000 2020	
Included observations: 21	
Root Mean Squared Error	0.013491
Mean Absolute Error	0.011039
Mean Abs. Percent Error	0.101495
Theil Inequality Coefficient	0.000607
Bias Proportion	0.000000
Variance Proportion	0.000018
Covariance Proportion	0.999982
Theil U2 Coefficient	0.048333
Symmetric MAPE	0.101503

2-rasm. O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot hajmining intensiv o'zgarish modelining parametrlarini retrospektiv sifat mezonlari natijasi⁸

7 Muallif hisob-kitoblari.

8 Muallif hisob-kitoblari asosida tayyorlangan.



2-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga asosan, $MAPE=0,1015$ bo'lib, bu o'z navbatida $MAPE=0,1015 < 10\%$ shart bajarilganligidan prognoz aniqligi yuqori va o'z navbatida $TIC=0,000607 < 1$ koeffitsientni shunchalik nolga intilishidan aniqlanadigan tenglama parametrlarining barchasi ahamiyatli. $=0,05$ va $k_1=16$; $k_2=4$ bo'lganda $F_{jad}=5.844117$ ga tengligini e'tiborga olgan holda hisoblangan Fisher qiymati $F_{his}=54529.1$ tengligidan $F_{jad} < F_{his}$ shartga binoan 3-regressiya tenglamasi ham ahamiyatli va $DW=1.987$ teng bo'lganligi bois, avtokorrelyatsiya mavjud emasligidan tenglamaning ishonchli va adekvatligi kelib chiqadi. Barcha parametrlarning ahamiyatligini e'tiborga olgan holda jadvalda keltirilgan koeffitsientlarga asosan quyidagi chiziqli tenglama hosil qilinadi:

$$\ln YIM = 1.4031 \ln MU + 0.04 \ln KU - 0.03412024 \ln ITX - 0.06 \ln OMS + 1.332 \quad (3)$$

Hosil qilingan chiziqli logorifmik 3.3.2-tenglamani logorifmik tenglamalar xususiyati va xossalaridan kelib chiqqan holda potsirlanadi:

$$YIM = \frac{MU^{1.4031} * KU^{0.04} * e^{1.332}}{ITX^{0.03412024} * OMS^{0.06}} \quad (3.3.2^*)$$

Ushbu intensiv o'sish bo'yicha aniqlangan 3-regressiya tenglamasiga iqtisodiy izoh beradigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda mehnat unumdorligini ming so'mga va kapital unumdorligini 1 million so'mga oshirishga erishilsa, yalpi ichki mahsulot hajmi mosravishda qo'shimcha 15,2 ming so'm va 40,3 mlrd. so'mga oshirish hamda ilmiy tadqiqot ishlanmalariga harajatlarni 1 mlrd. so'mga kamaytirilsa, 15,5 mlrd. so'mga oshirishni ta'minlashligi aniqlandi. Bu holat o'z navbatida, mamlakatda ilmiy tadqiqot ishlanmalarini amaliyotga joriy etishni kamligi va buning natijasida ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini pastligi bilan izohlash mumkin (mavjud ishlanmalarni imkon qadar ko'proq tijoratlashtirish ishlarini va ularni yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim).

Hozirgi kunda mamlakatda oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining ko'payib borayotganligi mamlakat iqtisodiyotini intensiv o'sishiga salbiy ta'sir etayotganligi bu o'z navbatida bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash lozimligini keltrib chiqaradi. Chunki, oliy ma'lumotli mutaxassislarning ish bilan ta'minlash natijasi har ming nafar oliy ma'lumotli mutaxassislarni ishga joylanib faoliyat olib borishi yalpi ichki mahsulot hajmini 450,3 mlrd. so'mga qo'shimcha oshirishga olib kelishi aniqlandi.

Aholi o'rtasida oliy ma'lumotlilar soni o'sishining yuqori sur'atlari, iqtisodiy o'sish uchun zararli emas balki, foydalidir, chunki iqtisodiyot ko'proq odamlarni tadqiqotga jalb qilishga imkon beradi. Ushbu turdagi endogen o'sish modeli ishlab chiqarishda ishlatiladigan barcha kirishlarga nisbatan shkalaga qaytishning o'sishini ko'rsatadi. O'rta tovarlar sohasida raqobat yo'qligi sababli ixtirochilar daromadni oraliq tovar ishlab chiqaruvchilarga patent huquqlarini sotish orqali olishlari mumkin. Tadqiqotlarning patent huquqlari yoki tadqiqotchilarga beriladigan subsidiyalari nuqtai nazaridan himoya qilinishi eng maqbul holga aylanadi, chunki tadqiqot butun iqtisodiyotda bilim zaxirasini ko'paytirish orqali samaradorlikni oshiradi. Bu esa o'z navbatida intensiv o'sishni ta'minlashda oliy ma'lumotlilar soni bilan ishlanmalar o'rtasidagi bog'liklikdan kelib chiqadi.

Iqtisodiy o'sishning yana bir tomoni shundan iboratki, hozirgi kunda raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotga kirib kelishi dastlabki holatlardan bir oz farq qilib, raqamli iqtisodiyot sharoitida unga ham e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi vaqtda raqamli iqtisodiyot konsepsiyasining akademik ta'rifi uchun yagona standart ta'rif keltirilmagan. Xorijiy tadqiqotlarni o'rganish ilmiy sohada, 1996 yilda amerikalik AT -konsalting mutaxassisi Tapscott "Raqamli iqtisodiyot: tarmoq razvedkasi davridagi imkoniyatlar va xavflar" hisobotida birinchi bo'lib raqamli iqtisodiyot konsepsiyasini ilgari surdi. Konsepsiyaning asosiy xususiyati - raqamli oqim va axborotni tarmoq orqali uzatishdan iborat⁹.

1998 yilda AQSh Savdo vazirligi tomonidan e'lon qilingan «Rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyot» hukumat hisobotida raqamli iqtisod atamasi birinchi marta kiritildi va raqamli iqtisodiyot tushunchasi asta -sekin butun dunyo hukumatlari va olimlari tomonidan tan olindi¹⁰. O'shandan beri raqamli iqtisodiyot bo'yicha tegishli tadqiqotlar ko'tarila boshladi, bu jarayonda raqamli iqtisodiyot tushunchasi doimiy ravishda boyitilib, chuqurlashtirilib bordi va raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari toifasi doimiy ravishda takomillashtirildi.

Raqamli iqtisodiyotni tor ma'noda aniqlash uchun ikkita asosiy nuqtai nazar mavjud. Birinchisi, raqamli iqtisodiyot ikki qismga bo'linadi, ya'ni raqamli iqtisodiyot deb ta'riflanadigan AKT xizmatlari va ishlab chiqarish, ikkinchisi chakana savdo, platforma iqtisodiyoti hamda almashish iqtisodiyoti, ular asosan AKT tomonidan qo'llab - quvvatlanadi va ularni rasmiy sanoat kodlari bilan ajratib bo'lmaydi.

Maglioni fikricha, "raqamli iqtisodiyot internet infratuzilmasi, elektron tijorat, tovar va xizmatlarni raqamli yetkazib berish hamda moddiy tovarlarning chakana savdosi kabi to'rt qismdan iborat"-deb ta'kidlaydi. Meisenbergning fikricha, raqamli iqtisodiyot uchta asosiy komponentdan iborat: elektron biznes infratuzilmasi, elektron biznes va elektron tijorat¹¹. Tadqiqotdan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotlar

9 Tapscott, D. (1996). The digital economy: Promise and risk in the era of network intelligence. Educom Review.

10 Source: IDC phone conversation, February 1998.

11 Frolov SM, Kremen OI, Ohol DO, 2015, Iqtisodiy o'sish sifatini baholashning ilmiy uslubiy yondashuvlari [J], Iqtisodiyotning dolzarb muammolari, 173 (11), 393 ~ 398.



raqamli iqtisodiyot tarkibiy qismlarini aniqlash asosida tegishli mahsulotlar yoki sohalarni aniqlab berdi. Raqamli platformalar odamlar, tashkilotlar va resurslarni biznes hamda iste'molchilar o'rtasidagi asosiy o'zaro ta'sirni osonlashtirish, shuningdek biznesni boshqarish samaradorligini oshirish uchun birlashtirish imkoniyatiga ega.

Shu ma'noda tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot hajmi– YIM ning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida mamlakatda jami internet-foydalanuvchilar – IFJ, mobil aloqaga ega bo'lganlar abonentlar soni – MAE, internetga ulangan korxona va tashkilotlar soni – IUK va keng polosali internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lganlar soni – PIK tanlab olinib bu tanlamalar o'rtasida ham tadqiqotlar olib borishni maqsad qilib olindi.

Tanlab olingan omillar o'rtasida ekonometrik tahlil yordamida hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot hajmining raqamli iqtisodiyot sharoitida o'zgarishi modeli aniqlandi. Buning uchun avvalambor, ushbu omillar o'rtasida umumiy va xususiy korrelyatsion bog'lanish darajasi hisoblandi (4-jadval).

4-jadval. Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot hajmining omillar bilan bog'lanish darajasi¹²

	YIM	IFJ	MAE	IUK	PIK
YIM	1				
IFJ	0,986981	1			
MAE	0,730989	0,792349	1		
IUK	0,98437	0,684495	0,708376	1	
PIK	0,974688	0,756793	0,621601	0,641791	1

Jadval qiymatlariga asosan, O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot hajmi mamlakatdagi jami internet-foydalanuvchilar – IFJ ($r_{YIM,IFJ}=0,986981$), mobil aloqaga ega bo'lganlar abonentlar soni – MAE ($r_{YIM,MAE}=0,730989$), internetga ulangan korxona va tashkilotlar soni – IUK ($r_{YIM,IUK}=0,730989$) va keng polosali internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lganlar soni – PIK ($r_{YIM,PIK}=0,730989$) lar bilan kuchli zichlikda bog'langanligi aniqlandi. Tanlangan omillar o'rtasida $r_{x1,x2}<0,8$ shartga ko'ra multikoleniarlik mavjud emasligidan kuzatilayotgan bog'liqlik o'rtasida omillar ko'rsatkichlarini ye asosga ko'ra logorifmlab regressiya tenglamasini aniqlashni EViews dasturi orqali davom ettirish mumkin (5-jadval).

5-jadval. Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot hajmi o'zgarishining regressiya tenglamasi parametrlari va ularning sifat mezonlari¹³

Dependent Variable: LNYIM				
Method: Least Squares				
Date: 10/15/21 Time: 07:09				
Sample: 2000 2020				
Included observations: 21				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
LNIFJ	0.453813	0.106091	4.2775825	0.0005
LNMAE	-0.048803	0.041305	-1.1815228	0.0021
LNIUK	0.848730	0.196946	4.3094461	0.0005
LNPIK	0.111043	0.048379	2.2952952	0.0356
C	-2.088269	1.723236	-1.211830	0.2432
R-squared	0.997015	Mean dependent var		10.99539
Adjusted R-squared	0.996269	S.D. dependent var		1.614075
S.E. of regression	0.098593	Akaike info criterion		-1.591369
Sum squared resid	0.155530	Schwarz criterion		-1.342674
Log likelihood	21.70938	Hannan-Quinn criter.		-1.537396
F-statistic	1336.054	Durbin-Watson stat		1.988438
Prob(F-statistic)	0.000000			

12 Muallif hisob-kitoblari.

13 Muallif hisob-kitoblari.

Jadvalda keltirilgan hisob-kitob natijalariga asosan aniqlangan koeffitsient qiymatlaridan foydalangan holda dastlab quyidagi logoritmik chiziqli ko'rinishdagi tenglamani hosil qilinadi:


$$\ln YIM = 0.45 \ln IFJ - 0.0488028 \ln MAE + 0.85 \ln IUK + 0.11 \ln PIK - 2.09$$

(4)

Hosil qilingan 4-regressiya tenglamasini natijaviy qiymatlar aniqligi va haqiqiy jarayonga mosligini o'rnatish uchun potentsirlash orqali quyidagi natijaga ega bo'linadi:

$$YIM = \frac{IFJ^{0.45} * IUK^{0.85} * PIK^{0.11}}{MAE^{0.0488028} * e^{2.09}} \quad (5)$$

5-regressiya tenglamasining parametrlarini ahamiyatligini parametrlarini t-Statistic mezonlari bo'yicha ahamiyatligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, $\alpha=0,05$ va $df=16$ bo'lgan holda $t_{jad}=2,119905$ ga tengligidan faqatgina mobil aloqaga ega bo'lganlar abonentlar soni – MAE ($t_{MAE}=-1.181523 < t_{jad}=2.119905$) ahamiyatsiz bo'lib, ushbu parametrning ahamiyatli yoki ahamiyatsiz ekanligiga to'liq ishonch hosil qilish uchun MAPE va TIC bilan tekshiramiz (3-rasm).



3-rasm. 5-regressiya parametrlarini retrospektiv sifat mezonlari natijasi¹⁴

3-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga asosan ta'kidlash mumkinki, MAPE=0,668 bo'lib, bu o'z navbatida MAPE=0,668<10% va TIC=0,0039<1 mezonlar bo'yicha shartlarni qanoatlantirgani uchun prognoz aniqligi yuqori va $\alpha=0,05$ va $k1=16$; $k2=4$ bo'lganda $F_{jad}=5.844117$ ga tengligini e'tiborga olgan holda hisoblangan Fisher qiymati $F_{his}=1336.1$ tengligidan $F_{jad} < F_{his}$ shartga binoan 5-regressiya tenglamasining ahamiyatligi hamda DW=1.988 teng bo'lganligi bois, avtokorrelyatsiya mavjud emasligidan tenglamaning ishonchli va adekvatligi kelib chiqadi.

Endi ushbu aniqlangan 5-regressiya tenglamasiga iqtisodiy jihatdan izoh beramiz. Unga ko'ra, agar hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida internetdan foydalanuvchilar sonini ming nafarga oshirilsa, mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmi 10,5 mlrd. so'mga qo'shimcha oshishi va mobil aloqaga ega bo'lgan abonentlar sonini ming nafarga kamaytirilishi 1160,4 mlrd. so'mga yalpi ichki mahsulot hajmini qo'shimcha oshirish imkoniyati tug'ilishini aniqlandi. Bu holat mobil aloqaga ega bo'lgan abonentlarning internetdan noo'rin foydalanishi natijasida internet tezligini kamaytirish bilan izohlash o'rinli.

Bundan tashqari agar internetga ulangan korxona va tashkilotlar sonini bir birlikka va keng polosali internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lganlar sonini ming nafarga oshirsak u holda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti hajmi mos ravishda 3,93 mlrd. so'm va 11,8 mlrd. so'mga qo'shimcha oshirish imkoniyatining mavjudligi aniqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Internet kapitalizmning uchinchi to'liqini ishga tushirdi, u jahon bozorining ko'p qirralarini - iste'molchilarning xatti -harakatlaridan yangi biznes modellariga o'zgartiradi. Rivojlangan va

¹⁴ Muallif hisob-kitoblari asosida tayyorlangan.



rivojlanayotgan iqtisodiyotda ro'y berayotgan bu siljishni mobillik, bulutli hisoblash, biznes - razvedka va ijtimoiy media qo'llab - quvvatlaydi.

Jahon iqtisodiyotidagi tektonik siljishlar, texnologik sakrashlar bilan birga, jahon bozorini qaytarib bo'lmaydigan darajada o'zgartirmoqda. 2008-2009-yillardagi global retsessiya Internet va boshqa kuchlar tomonidan ilgari surilgan iste'molchilarning xarajatlarini anglash, sanoatning o'zgarishi, bozorlarning globallashuvi, biznesning noaniqligi va xavfning yuzaga kelishi bozor tendensiyalarini tezlashtirdi. Buni qayta ko'rib chiqish asosiy masalalar: o'sishni qaerdan topish, mijozlar ehtiyojini qanday qondirish va bozorga chiqish bo'yicha odatiy fikrlashni buzadi.

Garchi ba'zida alohida o'ylansa - da, iqtisodiy o'sish va texnologiya bir - biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan bozorlarda sanoatning kengayishi, boylikning oshishi va aholi sonining ko'payishi texnologiyaga bo'lgan talabni oshirdi. Rivojlangan iqtisodiyotda esa, investorning yuqori daromad olish stavkalari xarajatlarni tejash va innovatsiyalarni kengaytirish zarurligini kuchaytiradi. Joylashuvidan qat'i nazar, o'sishni istagan firmalar iqtisodiyotning gullab - yashnayotgan qismlari - raqamli bozor va rivojlanayotgan dunyo bilan shug'ullanishi kerak. Bu rivojlanayotgan va rivojlangan iqtisodiyotda raqamli bozorni ilgari suradigan yaxshi davrni yaratadi.

Bugungi o'zaro bog'liq muhitda, bu fazilatli doira o'tmishda bo'lganidan farqli o'laroq, bozorning tez o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Tarixiy jihatdan, rivojlangan iqtisodiyotdagi firmalarning ko'pchiligi ichki strategiya doirasida modernizatsiya qilingan, avval o'z chegaralari ichida o'sgan, so'ngra o'z biznesini boshqa joylarda takrorlagan. Biroq, hozirgi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar buni shunday qilmoqdalarki, texnologiya global kapitalga, iste'dodga va boshqa resurslarga kirishni ancha osonlashtirdi va bu ularga global bozorni darhol rejalashtirish imkonini berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020–2024). Raqamli iqtisodiyot va raqamli transformatsiya bo'yicha PF-6079, PF-5349 farmonlari. <https://lex.uz/docs/-5030957>, <https://lex.uz/ru/docs/-3564970>
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2023). Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari yillik hisobotlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi (2022). Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari.
4. Davlat statistika qo'mitasi (2024). Yalpi ichki mahsulot hisoboti. <https://stat.uz>
5. Mullaiboev, B. B. (2022). Digital economy and productivity in Uzbekistan. *Central Asian Economic Review*, 24(2), 33–46.
6. Khassanov, A. (2021). Structural transformation of Uzbekistan's economy. *Journal of Economic Research*, 15(4), 51–64.
7. Bustonov, M. M. (2023). Intensiv rivojlanish omillari va mehnat unumdorligi tahlili. *O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali*, 2(6), 12–28.
8. Abduhalimov, Z. (2020). Raqamli iqtisodiyotning innovatsion salohiyatga ta'siri. *Iqtirodiyot va innovatsiyalar jurnali*, 3(1), 40–48.
9. Barro, R. J., & Sala-i-Martin, X. (2004). *Economic Growth* (2nd ed.). MIT Press.
10. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W. W. Norton.
11. Solow, R. M. (1956). A contribution to the theory of economic growth. *Quarterly Journal of Economics*, 70(1), 65–94.
12. Swan, T. (1956). Economic growth and capital accumulation. *Economic Record*, 32(2), 334–361.
13. Lucas, R. (1988). On the mechanics of economic development. *Journal of Monetary Economics*, 22(1), 3–42.
14. Romer, P. (1990). Endogenous technological change. *Journal of Political Economy*, 98(5), 71–102.
15. Kuznets, S. (1973). Modern economic growth. *American Economic Review*, 63(3), 247–258.
16. OECD. (2020). *Digital Economy Outlook*. OECD Publishing.
17. UNCTAD. (2021). *Digital Economy Report: Cross-border Data Flows and Development*.
18. World Bank. (2023). *World Development Indicators*. <https://databank.worldbank.org>
19. IMF. (2022). *Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia*. IMF.
20. Jorgenson, D. W., & Vu, K. (2016). The ICT revolution and economic growth. *Economic Systems Research*, 28(3), 378–394.
21. Acemoglu, D., & Restrepo, P. (2020). Robots and jobs: Evidence from US labor markets. *Journal of Political Economy*, 128(6), 2188–2244.
22. Aghion, P., & Howitt, P. (1998). *Endogenous Growth Theory*. MIT Press.
23. Joseph, S. (2019). Digital transformation and productivity growth. *Journal of Economic Perspectives*, 33(2), 45–68.
24. Gujarati, D. N. (2021). *Econometrics by Example* (3rd ed.). McGraw-Hill.
25. Wooldridge, J. M. (2015). *Introductory Econometrics: A Modern Approach* (6th ed.). Cengage Learning.
26. Enders, W. (2014). *Applied Econometric Time Series* (4th ed.). Wiley.
27. Harris, R., & Sollis, R. (2003). *Applied Time Series Modelling and Forecasting*. Wiley.
28. Pesaran, M. H., & Shin, Y. (1999). An autoregressive distributed lag modeling approach. *Journal of Applied Econometrics*, 14(1), 1–31.
29. Granger, C. W. J. (1969). Investigating causal relations by econometric models. *Econometrica*, 37(3), 424–438.
30. Johansen, S. (1995). *Likelihood-Based Inference in Cointegrated VAR Models*. Oxford University Press.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>